

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025  
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

"FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

## Tahrir hay'ati

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
AXMADALIYEV Y.I.

|                               |                                   |                                 |                                                              |
|-------------------------------|-----------------------------------|---------------------------------|--------------------------------------------------------------|
| FARMONOV Sh. (O'zbekiston)    | O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof. | ZUOGANG PENG (Xitoy)            | Janubiy-g'arbiy universitet, b.f.d., prof                    |
| ZAYNOBIDDINOV S (O'zbekiston) | O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof  | PANASYUK M (Rossiya)            | Qozon federal universiteti, g.f.d, profr                     |
| A'ZAMOV A (O'zbekiston)       | O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof  | VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)    | Anqara Hoji Bayram Veli universiteti fil. f.d., prof         |
| SAGDULLAYEV Sh (O'zbekiston)  | O'zR FA t.f.d., prof              | SIROJIDDINOV Sh (O'zbekiston)   | Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU akademigi, fil.f.d., prof |
| TURAYEV A. (O'zbekiston)      | O'zRFA akademigi, k-b,f,d., prof  | ABADI, TOTOK WAHYU (Indonesiya) | Universitas Muhammadiyah Sidoarjo, Siyosat va xalqaro huquq. |
| RASHIDOVA S. (O'zbekiston)    | O'zRFA k.f.d., prof               | SCOTT LEVI (AQSH)               | Ohio State University, PhD, prof                             |
| ABDULLAEVA Z (Qirg'iziston)   | OshDU k.f.n., dots                | AZIYA ZHUMABAYEVA (Qozog'iston) | Abay nomidagi Qozog' milliy pedagogika universiteti          |
| TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)    | O'zRFA akademigi, b.f.d., prof    | SANIYA NURGALIYEVA (Turkiya)    | Ataturk University                                           |
| G'ULOMOV S. (O'zbekiston)     | O'zRFA akademigi, i.f.d, prof     | SALTANAT ABILDINA (Qozog'iston) | E. A. Buketov nomidagi Qaragandi davlat universiteti         |
| JUMABEKOVA B (Qozog'iston)    | b.f.d., prof                      |                                 |                                                              |

## Tahririyat kengashi

| IJTIMOIY FANLAR BO'YICHA |                                          |                |                            |
|--------------------------|------------------------------------------|----------------|----------------------------|
| XONKELDIYEVA G.          | FarDU, i.f.d., prof.                     | SIDDIQOV I.    | FarDU, f.f.d., prof        |
| XAKIMOV N.               | FarDU, f.f.d., dots.                     | YULDASHEV S.   | FarDU, f.f.d. (DSc)        |
| ISOMIDDINOV M.           | FarDU, t.f.d., prof                      | G'ANIYEV B.    | FarDU, f.f.d., (DSc) dots. |
| USMONOV B.               | FarDU, t.f.d., prof                      | QOSIMOV A.     | FarDU, f.f.d., prof.       |
| MAXMUDOV O.              | FarDU, t.f.d., dots                      | QAMBAROV A.A   | FarDU, f.f.d., prof        |
| QAHHOROVA M.             | Xalqaro islom akademiyasi, f.f.d., prof. | ALIMOVA N.O    | FarDU, t.f.b.f.d., dots    |
| QAMBAROV A.              | FarDU, f.f.d.prof.                       | XASANOV M.X    | FarDU, t.f.b.f.d., prof    |
| MAMATOV M.               | FarDU, f.f.d., prof.                     | SHAMSIYEVA M.X | FarDU, t.f.b.f.d., dots    |
| DADABAYEVA               | FarDU, yu.f.f.d., dots                   |                |                            |

**Bo'lim boshlog'i:** Zokirov I.I., b.f.d.,prof.

**Texnik muharrirlar:** Sheraliyeva J.  
Mirkarimova Sh.

**Musahhihlar:** Mahmudov F.  
O'rinboyev I.

## Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.  
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60  
Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti: [Journal.fdu.uz](http://Journal.fdu.uz)

|                                                                                                         |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Sh.Abdugʻaffor</b>                                                                                   |     |
| XX asr boshlarida Fargʻona viloyatining Rossiya imperiyasi bilan iqtisodiy aloqalari .....              | 99  |
| <b>T.Egamberdiyeva, Sh.Oxunjonova</b>                                                                   |     |
| Taʼlimda gender yondashuvga oid xalqaro tajribalar tarixidan .....                                      | 105 |
| <b>R.A.Arslonzoda R.M.Qodirova</b>                                                                      |     |
| XX asrning 20-30 yillarida Oʻzbekiston SSR maktablarida tarix fanining oʻqitilishi masalalari .....     | 111 |
| <b>J.Sultonov</b>                                                                                       |     |
| Chingizxonning tangut davlatini egallash yoʻlidagi oʻziga xos diplomatiyasi.....                        | 116 |
| <b>E.K.Abdulxayev</b>                                                                                   |     |
| Qatagʻon siyosati qurboni boʻlgan jadidlarning rehabilitatsiya qilinishi .....                          | 122 |
| <b>Q.V.Yoʻlchiyev</b>                                                                                   |     |
| Urush mavzusining badiiy ifodasi.....                                                                   | 126 |
| <b>X.P.Jurayev, N.O.Maqsomov</b>                                                                        |     |
| Mustaqillik yillarida Fargʻona viloyatida sport infrastrukturasining rivojlanishi .....                 | 131 |
| <b>O.B.Abdunosirova</b>                                                                                 |     |
| Temuriylar davrida yuqumli kasalliklar va ularning ijtimoiy-madaniy hayotga taʼsiri .....               | 134 |
| <b>D.J.Nizomitdinov</b>                                                                                 |     |
| Amir Temurga asir tushgan nemis ritsari.....                                                            | 138 |
| <b>A.R.Usmonov</b>                                                                                      |     |
| Dehqonchilik anʼanalari bilan bogʻliq nomoddiy madaniyat (Fargʻona vodiysi misolida).....               | 141 |
| <b>F.I.Qayumova</b>                                                                                     |     |
| XX asr 20–30-yillaridagi iqtisodiy siyosat xususida ayrim mulohazalar (Fargʻona vodiysi misolida) ..... | 147 |
| <b>B.A.Usmonov</b>                                                                                      |     |
| 1470 – 1507-yillarda xurosonda Temuriylar davlatining siyosiy inqirozi va tugatilishi .....             | 153 |
| <b>B.A.Usmonov, R.X.Akbarov</b>                                                                         |     |
| Yangi qarashlarga boy tadqiqot.....                                                                     | 157 |



UO'K: 94 (575.1):930.8+614.4

## TEMURIYLAR DAVRIDA YUQUMLI KASALLIKLAR VA ULARNING IJTIMOY-MADANIY HAYOTGA TA'SIRI

### INFECTIOUS DISEASES IN THE TIMURID ERA AND THEIR IMPACT ON SOCIO-CULTURAL LIFE

### ИНФЕКЦИОННЫЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ В ЭПОХУ ТИМУРИДОВ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНУЮ ЖИЗНЬ

Abdunosirova Ozodaxon Botirjon qizi 

Farg'ona davlat universiteti, tarix fakulteti, O'zbekiston tarixi kafedrası o'qituvchisi

#### Annotatsiya

Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar davrida yuqumli kasalliklar hamda ularning turlari, kelib chiqish sabablari tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida o'rganilgan va tahlil etilgan. Mazkur davrda faoliyat ko'rsatgan tibbiyot muassasalari, tabiblar va hukumat tomonidan yuqumli kasalliklarga qarshi ko'rilgan chora-tadbirlar hamda epidemiyalarning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-adabiy jarayonlarga ko'rsatgan ta'siri haqida ba'zi fikr-mulohazalar bildirib o'tilgan.

#### Abstract

This article studies and analyses infectious diseases in the times of Amir Temur and Timurids, as well as their types and causes, on the basis of historical sources and scientific literature. Some remarks are made about the measures taken by medical institutions, doctors and the government against infectious diseases, as well as the impact of epidemics on socio-economic and scientific-literary processes in the country.

#### Аннотация

В данной статье на основе исторических источников и научной литературы изучаются и анализируются инфекционные заболевания во времена Амира Темура и Тимуридов, а также их виды и причины возникновения. Сделаны некоторые замечания о мерах, принимаемых медицинскими учреждениями, врачами и правительством против инфекционных заболеваний, а также о влиянии эпидемий на социально-экономические и научно-литературные процессы в государстве.

**Kalit so'zlar:** yuqumli kasalliklar, "Loy jangi", ilmiy-adabiy hayot, "vabo-toun" kasalligi, tibbiyot muassasalari, tabiblar, "ot o'lati", Mo'g'uliston, Samarqand, Hirot, "Ravzat al-jannot".

**Key words:** infectious diseases, 'Mud Battle', scientific and literary life, plague, medical institutions, doctors, 'horse pestilence', Mongolia, Samarkand, Herat, 'Ravzotu-l-jannot'.

**Ключевые слова:** инфекционные заболевания, «Грязевая битва», научная и литературная жизнь, чума, медицинские учреждения, врачи, «мор лошадей», Монголия, Самарканд, Герат, «Равзоту-л-джаннот».

#### KIRISH

Amir Temur va temuriylar davrining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, davlat boshqaruvi va harbiy jihatlari o'rganilgan va hozirgi kunga kelib ham shu mavzularda izlanishlar davom etib kelmoqda. Ushbu masala temuriylar davrining ijtimoiy-maishiy jihatiga oid bo'lsa-da, bu mavzuni yoritish orqali temuriylar davrida tibbiyot, tabiblar va kasalxonalar faoliyati, yuqumli kasalliklar hamda ularning ijtimoiy-madaniy jarayonlarga ta'sirini manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

"Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari, Rui Gonsales de Klavixoning "Samarqandga Amir Temur kundaligi" (1403-1406-yillar), Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" asari, Ibn Arabshoxning "Ajoyib al maqdur fi tarixi Taymur", Fasih Xavofiyning "Mujamali Fasihiy", Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sadayn va majmai bahrayn", Xondamirning "Habib us-siyar", "Xulosat ul-axbor" va boshqa asarlarda Amir Temur va temuriylar davrida yuqumli kasalliklar hamda ularga qarshi ko'rilgan chora-tadbirlar haqida muhim ma'lumotlar uchraydi.

## TARIX

B.Ahmedov, A.Muhammadjonov, A.Asqarov, D.Yusupova, Ibrohim Mo'minov, Hamidillo Dadaboyev, S.Karimova va boshqa tarixchi olimlar Amir Temur va temuriylar davri tibbiyoti haqida o'z asar va risolalarida temuriylar davrida tarqagan kasalliklar haqida qisqacha fikr-mulohazalar bildirib o'tishgan.

**NATIJA VA MUHOKAMA**

Amir Temur va temuriylar davrida bir necha marta xavfli yuqumli kasalliklar tarqalgan. Shulardan biri 1365-yili bo'lib o'tgan "Loy jangi"da mo'g'ul xoni Ilyosxo'ja qo'shinlari Movarounnahrning Amir Husayn va Amir Temur boshchiligidagi lashkarini mag'lubiyatga uchratganidan so'ng yuz bergan. Bu vaqtda Samarqand shahrida sarbadorlar harakati nomi bilan tanilgan xalq harakati bo'lib o'tdi. Mo'g'ul bosqinchilarining Samarqand sarbadorlari bilan kurashda mag'lub bo'lishlarida, Mo'g'ulistonga qaytib ketishlarida va ularning qo'shinida tarqalgan vabo, ya'ni "ot o'lati" kasalligi katta rol o'ynagan [1]. Mirzo Muhammad Haydar ham "Tarixi Rashidiy" asarida otlar orasida vabo tarqalganini aytib o'tadi va o'zidan oldingi muarrixlarining fikrlarini to'ldiradi. U o'latning tarqalishini shunday tasvirlaydi: "jete xalqining otlarig'a bovoqi bo'ldi. Va ancha otlar halok bo'ldikim, shu sababdan, ul yerdin zarurat bila yondi. Va ularning to'laroqi uchosiga tirkash bog'lab piyoda yondi. Vaqteki, mamlakatni saqilamoqlik bundoq lashkar birla barobarlik qilmoqlik bu qism ishlar podshohlarning va ularning noyiblarining ishi erdi" [2].

Ozarbayjon, Suriya, Xurosonda vabo kasalligi tez-tez tarqalib turgan. Bugungi kun nuqtai nazari bilan aytganda, epidemiya markazlari hisoblangan. Tabrizda 1407-1408-yilda vabo kasalligi tarqalib, 20 ming kishi vafot etgan [3]. Tabrizda tarqalgan yuqumli kasallik borasida Fasih Xavofiyning "Mujmali Fasihiy" asarida qisqacha ma'lumot uchraydi. Yuqumli kasallik tarqalgan hududlar va aynan qachon chekingani to'g'risida ma'lumotlar berilmagan.

Xondamir ham o'zining "Habib us-siyar" asarida Ozarbayjonda tarqalgan yuqumli kasallik (vabo) haqida qisqacha to'xtalib, ya'ni Abu Bakr mirzoning Tabrizga kelishi va u shaharga kirmasdan, qaytganini aytib o'tgan. Bu haqida muarrix shunday yozadi: "Abo Bakr mirzo isfaxonliklar bilan sulhga o'xshash bir narsani tartibga keltirib olish uchun Tabrizga yo'l oldi. Sulton shahzodaning kelishidan xabar topganidan keyin, uni jur'atsizlik va qo'rquv hissi chulg'ab oldi va Bag'dodga qarab ketdi. O'sha yili Tabrizda ko'pgina baxtsiz hodisalar yuz berdi, jumladan, vabo kasali ham tarqab, xalq parokanda bo'lib ketdi. Abo Bakr mirzo rabiulavvalning sakkizinchisida ul nohiyaga kirib, hech kimni ko'rmadi. Shuning uchun adolat va huquq tizimi jarayonlarini tartibga solib, tevarak-atrofga mehr-muhabbatga to'la maktublar jo'natdi va hech kim "hech qachon raiyatga zulm va zo'rlik qilmasin", deb farmon berdi [4]. Lekin, Xondamir ham Tabrizda tarqalgan vabo haqida batafsil to'xtalmaydi.

1435-yilda Hirotida tarqalgan vabo Amir Temur va temuriylar davrida eng talofatlisi bo'lgan. Fasih Xavofiyning qayd etishicha, yuqumli kasallik Hirot shahri va uning atroflarida avj olgan hamda o'n mingdan ortiq kishi vabodan vafot etgan. Muarrix kasallikning tarqalishini quyidagicha tasvirlaydi: "Bir kuni to'rt ming yetti yuzta tobut va boshqa narsalar, hayvonlarga ortib Hirot darvozalaridan olib chiqdilar. Bu hisobga Hirot atrofida gilar kirmagan" [5]. Ayni ma'lumotga tayangan holda, yuqumli kasallikdan vafot etganlar va kasallanganlarni ro'yhatga kiritishga ham ulgurmaganlar.

Abdurazzoq Samarqandiy esa vabodan Hirot shahri va uning atrofidan har ikki yuz kishidan bittasi tirik qolganini aytadi. Aholi tobut va kafan topa olmay qolgan. Ularni aravalarga ortganlar va to'rtta-beshitasini birga dafn etganlar. Dafn marosimlari ham umumiy tartibda o'tkazilgan.

Yuqumli kasallik 1435-yilning 2-30-mart kunlari boshlanadi. Mart-aprel oylarida esa shahar va uning atrofidagi buluklarga tarqalib ulgurgandi. Shu yilning iyun oyida esa vabo o'zining yuqori cho'qqisiga chiqqan. 1435-yilda Shohrux mirzo va shahzodalar, vazirlar, saroy ahlining ko'pchiligi Ozarbayjon yurishiga otlangan edi. Yuqumli kasallik avj olgan vaqtda Shohrux mirzo Ray shahrida bo'lgan. U 1436-yilning oktyabr oyida Xurosonga qaytib kelgan. Bu vaqtga kelib, vabo tufayli shahar va uning atrofidagi buluklarni tark etganlar qaytib kelgan, shahardagi hayot iziga tushgan [6]. Ayrim manbalarda vabo tarqalgan hududlar yoqilgani aytib o'tilgan.

Xuroson o'lkasidan kelayotgan barcha narsalar, jumladan maktublar ham nazoratga olingan. Bu haqida Abdurazzoq Samarqandiy shunday yozadi: "Hirot shahri va buluklaridagi ahvol xabari ham vabo va toun hamda haddu hisoblab ortiq qirg'in sharhi humoyun o'rdaga yetgach, hazrat xoqoni said viloyatda yuz began xarobalik, raiyatning, xususan akobirlarning qirg'iniga uchragani borasida nihoyatda qayg'urdi hamda xotirida parishonxonlik yuz bermasin deb, Xuroson tomondan kelgan yozishmalarni biror kishi ochmasin, bog'langan holicha keltirib, hazrat Shohruxning

tayinlangan ishonchli kishilariga topshirsinlar, - deb hukm qildi" [7]. Ushbu yuqumli kasallikdan o'z davrining e'tiborli shayxlaridan biri bo'lgan Qozi Sadriddin Muhammad al-Imomiy ham 1435-yilda olamdan o'tgan va u Gozurgoh mozoriga dafn qilingan. Hirot jomesining imomi, olim, yozma va og'zaki bilimlar sohibi mavlono Ziyouddin Nurulloh al-Xorazmiy, ko'plab asarlar va risolalar muallifi bo'lgan Sa'duddin Taftazoniyni o'g'li Shamsuddin Muhammad, mavlonzoda Nizomuddin Ahmad va turli hunarlar ustasi Asiluddin Tojulin, turli ilmlar bilimdoni bo'lgan mavlono Burhonuddin Atoulloh al-Xorazmiy al-Roziyning o'g'li Nizomuddin Ahmad ham vabo bilan kasallanib, 1435-yilning o'rtalarida vafot etgan [8]. Undan tashqari, shariat bilimdoni, voiz mavlono Jaloluddin al-Qoiniy, Sabzbaramon madrasasi mudarrisi Shamsiddin Muhammad Avhad, mavlono Shayxulislom Rukniddin Muhammad ibn Shayxulislom Shahobuddin al-Xiyoboniy, mavlono Kamoluddin Husayn ibn Asad, yetuk hunarmand, qori, shoir, xattot, musiqiy ilmida, ashula va tor chertishda tengsiz bo'lgan Xoja Abdulqodir Go'yanda ham vaboga chalingan [9]. Shuningdek, ko'plab ziyolilar boshqa hududlarga ko'chib o'tgan. Bu esa, ilmiy-adabiy jarayonlarga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmagan.

Muiniddin Isfizoriyning "Ravzat al-jannot" asarida mazkur vabo epidemiyasining tarqalishi haqida so'z yuritilib, yuqumli kasallik manbada "vabo-toun" "وباطاعون" nomi bilan keltirilgan [10].

از آغاز فتح اسلامی تا کنون تحولات تغییر ن ان و سوانح بسیاری بر شهر هرات وارد شده و این شهر چندین بار در اش حملات [11]. اعراب قتل عام لشکر یلن تاتار تخریبات سپاهیان تیمور و از بل زلزله قحط و غحلا و بیماریهای و باوطل عونزیر وزیر گردیده است

Muarrix Hirot, Yazd, Marv va Xuroson o'lkasining turli hududlarida xavfli kasalliklar haqida to'xtalib o'tar ekan, ularga chalinib vafot etgan ko'plab olimlar, shoirlar, shayxlarning nomlarini qayd etadi.

1462-yilning may oyida Hirot shahrida vabo tarqaladi. Yuqumli kasallik shu yilning 21-martidan keyin aniqlangandi. Abdurazzoq Samarqandiy yuqumli kasallik tarqalishi haqida quyidagi fikrlarni aytib o'tadi: "Shu yili taqvimlar tuzuvchi va iqlimlar hukmdorlari haqida natija chiqaruvchi munajjimlar ko'p hollarda "bu yil qudrat egasi bo'lmish hazrati tangri taolloning irodasi bilan shahar va diyorlarda xususan dorussaltana Hirotida toun kasalligi ko'p bo'ladi" deb bitgan edilar. Hanuz hamalning boshlari ham ediki, bu noxush surat yuz ko'rsatdi, sha'bon oyida esa bu hodisa aniq va ravshan ko'rindi. Haloyiq qiyin ahvolda qolib, vatanlarini tashlab qochishni boshladilar. Biron kishida ham turishga toqat bo'lmaganligi uchun hamma qochib ketdi. Islom podshohining o'rinbosari va qoim maqomi bo'lib turgan shahzoda Abulqosim Nuriddin mirzo Sulton Muhammad qozi janoblari va boshqa mavoliy ham devon ahli bilan birgalikda Bodg'is viloyati va Ko'hi Kiytu yayloqlari tomon chiqib ketdilar, raiyatlardan kimniki tayyorgarlik va qobiliyati yo'l ozig'ini ko'tarib bir chekkaga jo'nab ketdi" [12].

Vabo kasalligi kuchayib ketganidan keyin, Sulton Abu Said mirzo va Abulqosim Nuriddin mirzolar Bog'dizga chiqib ketadilar. 1462-yilning may-iyun oylarida kasallikka chalinishning eng yuqori davri bo'lgan edi. Shahar aholisi o'tloq va yaylovlarga ko'chib ketishga majbur bo'lgan. Oqibatda, shaharlardagi uylar, do'konlar, bozorlarda hech kim qolmagan, shahar esa bo'shab qolgandi. 1463-yilning boshida ham vabo kasalligi shahardan chekinmagan edi.

Abdurazzoq Samarqandiy ham "Matlai sadayn va majmai bahrayn" asarida vabo kasalligini "toun" nomi bilan ataydi. U xavfli yuqumli kasallik butkul chekinmagani uchun Sulton Abu Said mirzo Bog'dizda qoldi. Manbalarga ko'ra, yilning o'rtalariga borib, yuqumli kasallik Samarqand shahriga ham yetib keladi. Yuqumli kasallikning Movarounnahrning qaysi hududlarida tarqalagani, kasallanganlar soni va qancha vaqt mobaynida davom etgani haqida ma'lumotlar uchramaydi. Bizning fikrimizcha, Samarqandda yuqumli kasallik Hirot dagidek tez tarqalmagan yoki qisqa muddat davom etgan. Movarounnahr va Xurosonda tarqalgan kasallik 1435-yildagi kabi katta talofat keltirmagan bo'lsada, aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Lekin, biz tadqiqotimiz davomida o'rgangan va tahlil qilingan manbalarda vabo tarqalgan hududlarda yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish yoki uni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar haqida ma'lumotlar berilmaydi. Ba'zi o'rinlardagina hammomlardagi suvlar almashtirilgani, hovuz va ariqlarning suvi tozalangani haqida aytib o'tiladi. Bunday yuqumli kasalliklar tarqalgan vaqtda tabiblar turli gilyohlardan foydalanishgan. Masalan, ulardan biri Marvda yetishtirilgan "kovrak" o'simligi bo'lib, uni "ferela" deb ham atashgan. "Kovrak" chet mamlakatlarga ham chiqarilgan. Ushbu o'simlik yuqumli kasalliklarni davolashda juda samarali bo'lgan va Xurosondagi shifoxonalarda vaboga qarshi dori sifatida ishlatilgan.

### XULOSA

Yuqumli kasalliklar aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, kundalik turmush-tarziga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi, balki odamlarning ruhiy holatiga yomonlashadi. Ayrim manbalarda vabo

## TARIX

kabi xavfli kasalliklar tarqalganda diniy marosimlar o'tkazilgani aytib o'tiladi. Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, yuqumli kasallikni to'xtatish uchun Hirotda ham shunday tadbirlar amalga oshirilgan. Jumladan, qur'on xatm qilinib, ehsonlar tarqatilgan yoki shayxlar, ulamolar, hofizlar tomonidan duolar o'qilgan.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. معين الدين محمد الزمجي الاسفزاری. روضات الجنات فی اوصاف مدینه هرات ، ج ۱، ۶۲۲-۳.
2. معين الدين محمد الزمجي الاسفزار. روضات الجنات فی اوصاف مدینه هرات ، ج ۲، ص ۵۲۱-۱.
3. Фасих Хавафи. Муджмал-и Фасихи / пред. предис. примич. и указатели Д.Ю.Юсуповой. –Т.: Фан. 1980. – 346 с.
4. Ғаниева С. Сўзбоши. // Хондамир Ғиёсиддин. Макорим ул-ахлоқ //Форс тилидан таржима, изоҳлар, кириш ва илова муаллифи К.Раҳимов. – Т.: Ёшлар, 2018. – Б. 234.
5. Хондамир Ғиёсиддин. Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар / Форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари – Жалил Ҳазратқулов, Исмоил Бекжонов, Изоҳлар муаллифлари – Ашраф Аҳмедов, Исмоил Бекжонов, – Т.: Ўзбекистон, 2013. – 1272 б.
6. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн / Форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи А.Ўринбоев. Ж. II. Қ. I. 1405 – 1429 йил воқеалари. – Т.: «Ўзбекистон». 2008. – 632 б.
7. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур / Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи У. Уватов. – Тошкент: Меҳнат, 1992. II – 192 б.
8. Мирзо Мухаммад Хайдар. Тарихи Рашидий / Введение, пер. с перс. А Уринбаева, Р. П. Джалиловой и Л. М. Епифановой. – Ташкент: Фан, 1996. – 728 с
9. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. / Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев – Т.: Юлдузча. 1989. – 368.
10. Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё тарихий географияси. – Тошкент: Mumtoz So'z, 2017. – 352 б.
11. История Узбекистана. Эпоха Амира Темура и Темуридов. / Отв. Редакторы: Э.В.Ртвеладзе, Д.А.Алимова. – Тошкент: Фан, 2017. – 568 б.
12. Manz.B. Power, Politics and Religion in Timurid Iran. Cambridge University Press, 2007. – P. 219
13. <https://fa.wikifeqh.ir//>
14. <https://fa.wikifeqh.ir//>